



MARKAZIY OSIYO VA YEVROPANI BOG'LOVCHI GEOSIYOSIY VA
MADANIY KO'PRIK: O'ZBEKISTON VA FRANSIYA MUNOSABATLARINING
YANGI DAVRI.

Shahbozbek Pardayev Otabek o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti Birinchi bosqich
talabasi. shahbozbekpardayev029@gmail.com +998-77-718-21-05

Ziyodulla Sagdullayevich Poladxodjayev

Ilmiy rahbar: JIDU Professor o'qituvchisi. +998-97-409-10-01

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish bosqichlari hamda ularning strategik sheriklik darajasiga ko'tarilishi tahlil qilinadi. Siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik va madaniy-gumanitar aloqalarning asosiy yo'nalishlari yoritilib, istiqbolli hamkorlik yo'nalishlari belgilab beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston–Fransiya munosabatlari, strategik sheriklik, diplomatik aloqalar, iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv.

Аннотация: В статье рассматриваются этапы развития двусторонних отношений между Узбекистаном и Францией и их переход к уровню стратегического партнерства. Анализируются основные направления политического, торгово-экономического и культурно-гуманитарного сотрудничества, а также перспективы дальнейшего взаимодействия.

Ключевые слова: узбекско-французские отношения, стратегическое партнерство, дипломатические связи, экономическое сотрудничество, культурное взаимодействие.

Abstract: The article explores the development of bilateral relations between Uzbekistan and France and their transition to a strategic partnership. It highlights key areas of political, trade-economic, and cultural cooperation and outlines prospects for further collaboration.

Keywords: Uzbekistan–France relations, strategic partnership, diplomatic ties, economic cooperation, cultural exchange.

O'zbekiston tashqi siyosati doirasida Yevropa mamlakatlarini iqtisodiyot, siyosat sohasidagi loyihalarni va gumanitar tashabbuslarni amalga oshirishda muhim strategik sheriklar deb bilib, ular bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. Bu jarayonda Fransiya alohida o'rin tutadi. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik faol siyosiy-diplomatik muloqot hamda savdo-investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish va ta'lim, fan sohalaridagi almashinuvni mustahkamlashdagi keng imkoniyatlar bilan ajralib turadi.

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalarning tarixiy ildizlari sohibqiron Amir Temur va qirol Karl VI ning erkin savdoni yo'lga qo'yish yo'lida sheriklikka asos solgan XV asr boshlariga borib taqaladi. Har ikki mamlakat arxivlarida saqlanayotgan ma'lumotlar yetakchilarning siyosiy munosabatlarni mustahkamlashga bo'lgan istagidan dalolat beradi. Qirol Karl VI ning sharq bo'yichi siyosatini qo'llab-

quvvatlagan Amir Temur tijoriy aloqalarni rivojlantirish va savdogarlarni o'zaro qo'llab-quvvatlash muhimligini ta'kidlagan.

"Dunyo savdogarlar tufayli gullab-yashnaydi", deb qayd etgan sarkarda.

Do'stlik, hamjihatlik va iqtisodiy hamkorlikka bo'lgan bunday intilish asrlar davomida saqlanib qoldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu munosabatlar yangicha sur'atda rivojlandi va bu Fransiya bilan ko'p qirrali aloqalarni mustahkamlashda o'z ifodasini topdi. O'zaro hamkorlikning tarixiy ildizlari

Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari etib saylanishi bilan o'ziga xos dinamika kasb etgan zamonaviy muloqot uchun mustahkam poydevor yaratdi.

E'tiborlisi, O'zbekiston yetakchisi ilk Yevropa tashrifini aynan Fransiya amalga oshirdi. Ushbu diplomatik qadam qator hukumatlararo kelishuvlar imzolanishi bilan yakunlangan o'zaro munosabatlar tarixida yangi sahifa ochdi.

Haqiqatdan ham O'zbekiston va Fransiya o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarining o'rnatilganligi nafaqat ikki mamlakat qolaversa, Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi mintaqasi rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasi siyosatida yetakchi o'rin tutsa, Fransiya ham butun Yevropa Ittifoqining kun tartibi ko'p jihatdan shakllanadigan siyosiy markaz hisoblanadi. Agar bu borada raqamlarga e'tibor qartilsa, Fransiya iqtisodiy jihatdan Yevropada uchinchi, jahonda yettinchi o'rinda turuvchi davlat sanaladi.

Bugun har ikki mamlakat ochiqlik va pragmatizmni o'zlarining ichki va tashqi siyosatida, global maydonda namoyon etishmoqda, siyosiy muloqot, savdo- iqtisodiy, investitsiyaviy, energetika, texnologik va madaniy-gumanitar yo'nalishlarni rivojlantirishda faol hamkorlik qilishmoqda. Bunday har tomonlama yondashuv zamonaviy tahdidlarga javob beradigan va umumiy tarixiy merosga tayanadigan o'zaro manfaatli sherikchilikka bo'lgan intilishdan dalolatdir.

34 yillik diplomatik munosabatlar davrida ikki mamlakat o'rtasida oltita o'zaro davlat tashriflari bo'lib o'tdi, ularning yarmi so'nggi 7 yilda amaldagi yetakchilar davriga to'g'ri keldi. Bu davr Prezident Shavkat Mirziyoyevning Parijga 2018- va 2022-yillarda ikkita tashrifi hamda Prezident Emmanuel

Makronning 2023 yilda Toshkentga amalga oshirgan tashrifi bilan ajralib turadi.

Yuqori darajadagi uchrashuvlar dinamikasi aloqalarning sezilarli darajada mustahkamlangani hamda hamkorlikni rivojlantirishdan o'zaro manfaatdorlikdan dalolat beradi.



Davlatlar rahbarlari sammitlari bilan birga ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari va parlamentlari rahbarlarining muntazam uchrashuvlari ham o'tkazilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida "O'zbekiston-Fransiya" do'stlik guruhi parlamentlararo hamkorlikning muhim vositasidir.

Fransiya Senati Milliy assambleyasida "Fransiya – Markaziy Osiyo" parlamentlararo guruhi faoliyat yuritadi. Bunday ko'pqirrali hamkorlik siyosiy muloqotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston va Fransiya munosabatlarining izchil rivojlanishi savdo- iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarida keng istiqbollarni ochadi. O'zbekistonda fransuz kapitali ishtirokida 50 ta korxona faoliyat yuritmoqda, ularning yarmi fransiyalik sarmoyadorlarga tegishli. Fransiya biznesining ishtiroki respublikamiz iqtisodiyotining kommunal xo'jalik (Veolia, Suez, Eiffage), energetika, jumladan "yashil" energetika (EDF, Total Eren, Voltalia, Orano), oziq-ovqat sanoati (Lactalis) kabi muhim sohalarida ayniqsa sezilarli.

Fransiya kompaniyalarining turli sohalaridagi faol ishtiroki ularning o'zbek bozoriga bo'lgan qiziqishi ortayotganini ko'rsatadi hamda mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishda ishonchli asos yaratadi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo komissiya va O'zbekiston-Fransiya Savdo palatasi ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishning muhim mexanizmlari hisoblanadi.

Hozirgi kunda 1,07 mlrd yevrolik byudjetga ega 2023-2025 yillarga mo'ljallagan Hamkorlik dasturini amalga oshirayotgan Fransiya taraqqiyot agentligi muhim hissa qo'shmoqda.

Qo'shma biznes-forumlar o'zaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning birinchisi 2023 yil noyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan edi. Unda 60 ta fransuz kompaniyalari ishtirok etishgan. Ikkinchi biznes-forum

2024-yil may oyida Toshkentda o'tkazildi, unda Fransiyaning 20 kompanisining 53 nafar vakillari, jumladan, "SUEZ" i "Airbus

Europe" top-menedjerlari qatnashdilar. БИЗНЕС-forum yakunlari bo'yicha joriy yil 30 yanvar kuni poytaxtimizda iqtisodiy hamkorlikka oid qator kelishuvlar imzolandi.

Ushbu uchrashuvlarning natijalari O'zbekiston va YeI o'rtasidagi hamkorlik kelishuvi bilan yaratilgan qulay shart-sharoit bilan mustahkamlanmoqda. Hujjatga ko'ra, Fransiya bilan eng ko'p qulaylik rejimi o'rnatilgan. Bu so'nggi besh yil ichida o'zaro tovar ayirboshlash hajmining besh barobar oshishiga yordam berdi va bu ko'rsatgich 2024-yilda 1,1 milliard dollarga yetdi. Mashinasozlik va tabiiy resurslarni qazib olish kabi sohalarini qamrab olgan joriy va istiqbolli loyihalar portfeli 8 milliard yevrodan oshadi.

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning jadal rivojlanishi bilan birga, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik ham faol kengaymoqda. So'nggi 7 yilda turli sohalarida 50 dan ortiq kelishuvlar imzolandi: turizm, arxeologiya, dizayn, moda, lingvistika, ta'lim, biznes-menedjment, sog'liqni saqlash va sport yo'nalishlari shular jumlasidandir.

Kelishuvlar samaralari ayniqsa turizm sohasida juda sezilarli: so'nggi ikki yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan fransiyalik sayyohlar soni yiliga 20 ming kishiga yaqinlashdi. Ayni vaqtda, mamlakatimizda fransuz tilini o'rganish ham faol rivojlanmoqda. Bugungi kunda 189 ming nafar maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlar talabalari fransuz tilini yaxshi o'zlashtirganlar. Bu ma'lumotlar madaniy aloqalar va o'zaro qiziqish



mustahkamlanib, ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun asos yaratayotganidan dalolat beradi.

"Fransiya Alyansi" boshchiligidagi madaniy markazlar mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Fransiya hududida Abu Ali ibn Sino va Mirzo Ulug'bek sharafiga o'rnatilgan haykallar ushbu Yevropa davlatida mintaqamiz tarixiy merosiga bo'lgan hurmat va qiziqishdan dalolatdir.

Hamkorlik aloqalari shuningdek, Ruey-Malmezon va Tuluzadagi "O'zbek bog'lari" kabi qo'shma loyihalar tufayli ham mustahkamlanmoqda.

Respublikamiz san'ati va tarixiga bag'ishlangan ko'rgazmalar ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi. 2022-2023 yillarda muhim madaniy tadbirlar, jumladan, Luvrda "O'zbekiston vohalari xazinasi", Arab dunyosi institutida "Samarqandga yo'l" hamda YUNESKO bosh qarorgohida "Abu Rayhon Beruniy" ko'rgazmalari bo'lib o'tdi. Bu namoyishlar boy tarixiy merosimizni ochib berish bilan birga, ikki davlat o'rtasidagi yaqinlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, O'zbekiston va Fransiya munosabatlari tiklanish davrini boshdan kechirmoqda. Toshkentning ham O'zbekistonda, ham butun Markaziy Osiyo mintaqasida halqaro hamkorlarni keng jalb qilishga qaratilgan ochiq va pragmatik tashqi siyosati Fransiya bilan munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

Fransiya Respublikasi bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



Ma'lumki, 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Fransiya birinchilardan bo'lib uni tan oldi va diplomatic munosabatlarni o'rnatish istagini bildirdi. Xususan, 1992-yilning 1-mart kuni Fransiya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish haqida protocol imzolandi. 1992- yildan boshlab Toshkentda Fransiya elchixonasi, 1995-yildan boshlab esa Parijda

O'zbekiston elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Fransiya Respublikasi O'zbekistonning Yevropadagi muhim sheriklaridan biri hisoblanadi. Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi ilk davlat va rasmiy tashriflar biri 1993-yilda bo'lgan. Jumladan, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov va O'zbekiston delegatsiyasi 1993- va 1996-yillarda Fransiyaga tashrif buyurgan. O'z navbatida

Fransiya Prezidenti Mitteranning O'zbekistonga davlat tashrifi 1994-yil aprel oyida amalga oshirilgan.



Ta'kidlash joizki, 2016 yildan keyin o'zaro munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya 2018-yil 8-9 oktyabr kunlari amalga oshirgan rasmiy tashrifi aloqalarning yangi davrini boshlab berdi. Parijda o'tgan oliy darajadagi muzokaralar chog'ida hukumatlararo va idoralararo 10 ta hujjat imzolandi. Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yuqori baholab, ikki davlatning xalqaro va mintaqaviy masalalarga yondashuvi mushtarakligini ta'kidladi. O'zbekistonning ochiq, yaxshi qo'shnichilikka asoslangan siyosati Markaziy Osiyo barqarorligiga xizmat qilayotganini qayd etdi.

O'zbekiston – Fransiya: 2016+

Oliy darajadagi muloqot keyingi yillarda yanada faollashdi. 2022-yil 21-22 noyabr kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya yana bir rasmiy tashrifi uyushtirilib, mazkur davlatning Milliy assambleyasi raisi Yael Braun-Pive bilan uchrashuvda ikki mamlakat parlamentlari hamkorligini mustahkamlash masalasi muhokama qilindi.

Shuningdek, Parijda davlatimiz rahbari ushbu mamlakat yetakchi kompaniya va moliya institutlari rahbarlari bilan muzokara o'tkazdi. Tomonlar savdo-iqtisodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, "yo'l xaritalari" ijrosini jadallashtirish va yangi qo'shma tashabbuslarni ilgari surishga kelishib oldi. O'zaro munosabatlarni yanada kengaytirishga qaratilgan 14 ta hujjat qabul qilindi. Jumladan, Fransiya taraqqiyot agentligi bilan 2023-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini amalga oshirish bo'yicha strategik sheriklik to'g'risidagi bitim imzolandi. Tashqi siyosiy idoralar o'rtasidagi 2023-2024 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi hamda umumiy qiymati 6 milliard yevrodan ziyod bo'lgan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy hamkorlik loyihalari yuzasidan kelishuvga erishildi. O'zbekiston

Rspublikasi Oliy Majlis Senati Raisining Birinchi o'rinbosari Sodiq ta'kidlaganlaridek: "...Fransiya tashrif ulkan ahamiyatga ega. O'ziga xos ravishda "Yevropa debocha" ochgan mazkur tashrif O'zbekiston-Fransiya munosabatlarining rivojiga yangi turtki berdi"⁹.

Ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam siyosiy maslahatlashuv yo'lga qo'yilgan, parlamentlarda "O'zbekiston-Fransiya" do'stlik guruhlari faoliyat yuritmoqda. Tomonlar BMT, YeXHT va Yevropa Ittifoqi doirasida ham faol hamkorlik qilib kelmoqda. Fransiya xalqaro hamjamiyatda

O'zbekistonning ochiqlik siyosati va qo'shnilar bilan yaqin munosabat o'rnatishga qaratilgan sa'y-harakatini qo'llab-quvvatlamogda.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik:

Fransiya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi muhim savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2010-yillar oxiriga kelib o'zaro savdo aylanmasi yiliga o'rtacha 200 million yevro atrofida bo'lib, asosan yirik shartnomalar hisobiga qoplanar edi. Keyingi yillarda iqtisodiy munosabatlar izchil rivojlanib, savdo hajmi, investitsiya sur'ati tezlashdi.

⁹ O'zbekiston-Fransiya: taraqqiyotning yangi bosqichidagi hamkorlik.

2017-2022 yillar mobaynida tovar ayirboshlash 342,4 million dollarga yetdi. Jarayon 2024-yil yanada jadallashib, 689,8 million dollarni tashkil etdi. Bu 2023 yilga nisbatan 33,3 foiz o'sishni ko'rsatadi.

O'tgan yil birinchi chorakda qayd etilgan 337,1 million dollarlik ikki tomonlama savdo qiymati 2023-yilning mos davriga nisbatan 63 foiz ko'p. O'zbekistonning Fransiya eksporti 2024-yil yanvar-iyul oylarida 480,3 million dollarga yetdi. Bu natija avvalgi yilga nisbatan ikki barobar yuqori.

Bugungi kunda diyorimizda fransuz sarmoyasi asosida faoliyat yuritayotgan 50 korxonaning 17 tasi to'liqxoriy kapitali hisobidan shakllantirilgan. Qo'shma loyihalarning umumiy qiymati 5 milliard yevrodan oshgan. Ayniqsa Veolia, Suez, EDF, Total Eren, Voltalia, Orano, Airbus kabi hamkorlarimiz barqaror faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur kompaniyalar geologiya-qidiruv, energetika, qurilish materiallari ishlab chiqarish, avtosanoat, kommunal xizmat, turizm sohalarida yirik loyihalar amalga oshirmoqda. Samarqand viloyatida "Total Eren" ko'magida quyosh elektr stansiyasi muvaffaqiyatli ishga tushirildi, Navoiy viloyatida Orano kompaniyasi bilan uran qazib olish bo'yicha ish olib borilyapti, Sirdaryo viloyatida EDF ishtirokida 1600 MVt quvvatga ega zamonaviy issiqlik elektr stansiyasi barpo etilmoqda. Suez Toshkent va Surxondaryoda ichimlik suvi ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish, Veolia esa Toshkent shahri issiqlik xo'jaligini rivojlantirish uchun uzoq muddatli sherik sifatida tanlangan. Islohotlarimiz savdo aloqasi tez sur'atda o'sishiga xizmat qilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiyaning "Faxriy legion" ordeni bilan taqdirlandi. 13.03.2025. So'nggi yetti yil ichida O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash qariyb 5 karra oshib, 1,13 milliard dollarga yetgani e'tiborga molik. Shu bilan birga, respublikamizda farang korxonalari qariyb 4 barobar ko'paydi. Bu raqamlar munosabatlarimiz tobora mustahkamlanayotgani va o'zaro manfaatli hamkorlik istiqboli yuqori ekanini ko'rsatadi.

2023-yil aprel oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan qo'shma biznes-forum Fransiya tadbirkorlarining mamlakatimizga qiziqishi ortganini yaqqol tasdiqladi. Fransiya tadbirkorlar harakati – MEDEF international bilan birgalikda tashkil etilgan, ushbu davlatning 35 dan ziyod kompaniya va banki vakillari ishtirok etgan tadbirda qator yangi investitsiya loyihalari muhokama qilinib, hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Fransiya Taraqqiyot agentligi (AFD) bilan hamkorlik izchil rivojlanmoqda. 2018-yil poytaxtimizda mazkur tuzilma vakolatxonasi ochilib, infratizim loyihalarini



moliyalashtirish uchun qariyb 1 milliard yevrolik dastur imzolangan edi. 2022-yil 21 noyabrda O'zbekiston Hukumati va AFD o'rtasida qishloq xo'jaligi, energetika, "yashil" iqtisodiyot, shaharlarni rivojlantirish, suv ta'minoti, bank-moliya va transport sohalarida aniq loyihalar amalga oshirishni nazarda tutadigan, umumiy qiymati 1 milliard yevrodan oshadigan 2025-yilgacha strategik hamkorlik dasturini imzolash marosimi bo'lib o'tgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi – O'zbekiston hamkorlik kelishuvi doirasida Fransiya bilan eng qulay sharoit (MFN) rejimi joriy qilingani ikki tomonlama savdoni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Madaniy-gumanitar hamkorlik va ta'lim almashinuvi:

Madaniy-gumanitar hamkorlik O'zbekiston – Fransiya munosabatining ajralmas qismidir. Ayni yo'nalish o'zaro manfaatdorlik va faollik bilan tavsiflanadi. So'nggi yillarda madaniyat, san'at, ta'lim va fan sohalarida keng qamrovli loyihalar amalga oshirilmoqda. 2022-yil 22 noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident

Emmanuel Makron Parijdagi Luvr muzeyida "O'zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo'llari chorrahasida" nomli ko'rgazmani tantanali ravishda ochdi.

O'zbekistonning boy madaniy merosiga bag'ishlangan mazkur ko'rgazmani tayyorlashga bir necha yil puxta tayyorgarlik ko'rildi. Jumladan, qo'shma o'zbek- fransuz arxeologik ekspeditsiyalari tuzilishi natijasida qator nodir topilmalar kashf etildi. Ikki mamlakat mutaxassisleri tomonidan tarixiy artefaktlarni restavratsiya qilish ishlari olib borildi. Ko'rgazma ekspozitsiyasiga O'zbekistonning 16 muzeyidan 138ta noyob ashyo, jumladan 70 ta maxsus qayta tiklangan eksponat hamda Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSH muzeylaridan 31 ta ashyo kiritildi.

Xuddi shu kunlari Parijdagi Arab dunyosi institutida "Samarqandga yo'l: Ipak va oltin mo'jizalari" nomli ko'rgazma ochilib, uch oydan ortiq vaqt davomida namoyish etildi. Mazkur tadbirlar Fransiya aholisi va mehmonlariga O'zbekistonning noyob tarixiy-madaniy merosi bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Fransiyada o'zbek xalqi tarixi va madaniyatiga qiziqish an'anaviy ravishda yuqori. 1988-yil Parijda tashkil etilgan Temuriylar davri san'ati va tarixi tadqiqoti assotsiatsiyasi hamda "Avitsenna-Fransiya" kabi jamiyatlar buning yorqin namunasidir. Shuningdek, ikki mamlakat shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, bugungi kunda Samarqand va Lion, Buxoro va Ryuey-Malmezon shaharlari qardoshlik rishtasi bilan bog'langan.

Buxoro va Parij yaqinidagi Ryuey-Malmezon do'stligiga 1999-yil asos solingan bo'lib, 2019-yil Ryuey-Malmezon shahri markaziy bog'ida "O'zbekiston bog'i" barpo etildi va shu manzilda mashhur o'zbek olimlari Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) va Mirzo Ulug'bekka haykal o'rnatildi. Bunday madaniy almashinuv loyihalari xalqlarimizni yanada jipslashtirishga xizmat qilmoqda.

Hozir mamlakatimizda 3 000 ga yaqin fransuz tili o'qituvchisi bor. Maktab va oliy o'quv yurtlarida taxminan 200 ming o'quvchi va talaba bu tilni o'rganmoqda. Fransuz tili umumta'lim tizimidagi 700 ga yaqin maktab, 6 ixtisoslashtirilgan maktab-internatda o'qitiladi. 13 ta universitetda fransuz filologiyasi yoki roman tillari fakulteti mavjud.

2019-yil Samarqand shahridagi 43-ixtisoslashtirilgan maktabga fransuz tadqiqotchisi, Temuriylar tarixi va san'ati assotsiatsiyasi asoschisi Lyusen Keren nomi berilgani ta'lim sohasidagi hamkorlikning yorqin ramzidir. Toshkentda



Fransuz tili va madaniyati markazi – Alliance Française 2015 yildan buyon samarali faoliyat ko'rsatib, o'zbek yoshlariga fransuz tili va madaniyatini o'rganishda ko'maklashmoqda.

Poytaxtimizdagi Fransiya xalqaro maktabi (litsey)da fransuz va o'zbek dasturlari asosida ta'lim beriladi. Mamlakatimiz fransuz tili o'qituvchilari uyushmasi xalqaro fransuz tili o'qituvchilari federatsiyasi tarkibida tuzilgan bo'lib, pedagoglar malakasini oshirish va tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'ygan.

Turizm, arxeologiya, dizayn va moda, energetika, siyosatshunoslik kabi ko'plab sohalarda qo'shma ta'lim dasturlari ishlamoqda. Oxirgi yillarda Fransiyaning bir qator nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatildi. Jumladan, Parij-Sud universiteti, Parij I Panteon-Sorbonna, Parij II Panteon-Assas, Parij IV Sorbonna, Grenobl, Nitssa Sofiya-Antipolis, Brittani- Janubi universitetlari, "Nasional" Sharq tillari va sivilizatsiyalari instituti(INALCO), Tuluza universiteti,

Tuluza Siyosiy tadqiqotlar instituti, Versal Arxitektura oliy maktabi kabi ta'lim dargohlari do'stlik aloqalari yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi va Fransiyaning milliy magistratura maktabi (ENM) o'rtasida kadrlar tayyorlash bo'yicha almashinuv dasturi tuzilgan.

Yurtimizda Fransiyaning nufuzli ta'lim muassasalarini ochish borasida ham tarixiy qadamlar qo'yildi. 2018-yil oktyabrda Parijda bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvlarda Toshkentda Strasburg hamda Parij I Panteon-Sorbonna universitetlari

filiallarini ochish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi. 2019-yil Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida "Paris International Fashion Academy" – Parij xalqaro moda akademiyasi bilan qo'shma fakultet ochildi. Buxoro davlat universitetida Fransiyaning Vatel mehmonxona biznesi va turizm bo'yicha biznes-maktabi filiali ish boshladi. 2021/2022 o'quv yilidan Toshkent transport universitetida Fransiya Fuqaro aviatsiyasi milliy maktabi bilan hamkorlikda fuqaro aviatsiyasi uchuvchilari uchun maxsus fakultet faoliyat yuritmoqda.

Ma'lumot o'rnida aytish joiz, Fransiya elchixonasi bilan O'zbekiston- Fransiya universitetini tashkil etish masalasi muhokama qilingan edi. Yaqin istiqbolda Toshkentda bir necha farang oliy o'quv yurtlari konsorsium iishtirolkida O'zbekiston-Fransiya ko'ptarmoqli universitetini tashkil etish bo'yicha ish olib borilyapti. Bu qadamlar yosh avlodning xalqaro standart bo'yicha ta'lim olishi uchun sharoit yaratib, ikki davlatni yanada yaqinlashtiruvchi omil bo'ladi.

Madaniy meros va arxeologiya sohasidagi hamkorlik samarasi ham yaqqol sezilmoqda. Fransuz mutaxassislari O'zbekistondagi qator tarixiy yodgorliklarni tiklash va tadqiq qilish loyihalarida ishtirok etmoqda. Masalan, Luvr muzeyida namoyish etilgan Afrosiyob devoriy suratlari o'z joyiga, Afrosiyob muzeyi ekspozitsiyasiga qayta montaj qilindi. Bu haqda Madaniy meros agentligi xabar bergan edi. Shu bilan birga qator qo'shma arxeologik ekspeditsiyalar davomida milliy tariximiz uchun muhim bo'lgan yangi topilmalar kashf etilib, yuqorida zikr etilganidek, Luvrdagi ko'rgazmada namoyish etildi.

Kino va san'at sohasidagi hamkorlik ham rivojlanmoqda. 2018-yil may oyida 71-Kann xalqaro kinofestivali doirasida birinchi marta "O'zbekiston" paviloni ish boshladi. Mazkur milliy stend orqali o'zbek kinematografiyasi yutuqlari xalqaro kino industriyasi vakillariga



namoyish etildi. 2019-yil ham Kann anjumani doirasidagi "Marché du Film" (kinobozor) tadbirida pavilonimiz ochilib, yosh ijodkorlarimiz loyihalari taqdim etildi. Bugungi kunda Milliy kino komissiyasi Kann festivalida ishtirokni an'anaviy yo'lga qo'ygani ikki mamlakat madaniy aloqalarini boyitmoqda.

Yana bir muhim voqea: mashhur aktyor Jerar Deparde 2019-yil O'zbekistonnin Fransiyadagi turizm elchisi (brend-ambassador) etib tayinlandi.

Deparde "Mening o'zbekcha tushlarim" nomli filmi orqali o'lkamizning sayyohlik imkoniyatini targ'ib qilishga ko'maklashdi. Madaniyat va turizm sohasidagi ayni tashabbuslar tufayli so'nggi yillarda Fransiyadan O'zbekistonga keluvlar soni izchil o'smoqda. O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi hamkorlik keyingi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ta'lim sohalarida faol rivojlanmoqda. Iqtisodiy sohada hamkorlikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston – Fransiya biznes-forumlari muntazam tashkil etib kelinmoqda. Fransiya kompaniyalari O'zbekistonda qishloq xo'jaligi, energetika, infratuzilma va sanoat sohalarida faoliyat yuritmoqda. Xususan hozirga kelib, O'zbekistonda Fransiya kapitali ishtirokida jami 50 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda. Shundan 28 tasi qo'shma korxona hamda 22 tasi to'liq Fransiya kapitali ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi. Prezidentimizning 2025-yil 11-13 mart kunlari Fransiyaga qilgan davlat tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Buni har bir uchrashuv va muloqotlardagi samimiyat va do'stona munosabatlarda ham ko'rish mumkin. Qolaversa, bu galgi tashrif kutilmagan tarixiy voqeliklarga ham boy bo'ldi.

Jumladan, Yelisey saroyida bo'lib o'tgan Prezident Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralar yakunida davlat rahbarlari ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida tarixiy qarorga keldilar. Prezidentimiz Fransiya Respublikasining oliy mukofoti – "Faxriy legion" ordeni bilan taqdirlandi.

Shuningdek, davlat rahbarlari huzurida mutaxassislar va talabalar harakatchanligi to'g'risidagi hukumatlararo bitim, diplomatik pasport egalarini viza talablaridan o'zaro ozod qilish to'g'risidagi hukumatlararo bitim hamda Fransiyaning yetakchi kompaniyalari bilan O'zbekistonda 6,5 milliard yevrolik istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi Investitsiya va innovatsiya sohalaridagi hamkorlik dasturi almashildi. Shu bilan birga, davlat tashrifi davomida O'zbekiston – Fransiya universitetini tashkil etish to'g'risida hukumatlararo bitim, sog'liqni saqlash sohasida hamkorlik to'g'risida deklaratsiya hamda 2026-2030 yillarda Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlik dasturi kabi 10 dan ortiq hujjat imzolandi.



Erishilgan kelishuvlarning hayotga izchillik bilan tatbiq etilishi yaqin vaqt ichida O'zbekistonda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida ulkan natijalarga erishish imkonini beradi. Boisi, jahonning kuchli 100 ta top universitetlari qatoriga kiruvchi Fransiyaning Sarbonna universiteti, Lion milliy amaliy fanlar instituti kabilarning O'zbekistonda filiallari ochilishi mamlakatimizda zamonaviy bilimlar va tajriba almashinishini ta'minlaydi.

Qolaversa, O'zbekiston farmatsevtika sektoriga Fransiyaning yuqori texnologiyalarini jalb qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda zamonaviy klinikalar qurish va tibbiyot uskunalari yetkazib berishda Fransiya kompaniyalari jahonda yetakchi hisoblanadi. Hozirda Sanofi kabi fransuz farmatsevtika kompaniyalari O'zbekistonda dorilar ishlab chiqarish va tarqatishda ishtirok etishga qiziqish bildirmoqda.

Umuman olganda, Parij shahriga tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya ishbilarmon doiralarining yetakchi vakillari, Fransiya Milliy majlisi Raisi Yael Braun-Pive, Parij shahri meri Ann Idalgolar bilan bo'lib o'tgan samimiy uchrashuvi va erishilgan natijalar yaqin istiqbolda o'z natijasini ko'rsatib ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamda ijtimoy-madaniy sohalaridagi hamkorlik aloqalari yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonning Fransiya elchilari:

- 1994-1996 — Akmal Saidov
- 2003-2005 — Hamidulla Karomatov
- 2005-2008 — Ravshanbek Olimov
- 2008-2012 — Bahromjon A'loyev
- 2012-2017 — Ravshan Usmonov
- 2018-2024 — Sardor Rustamboyev
- 2024-20... — Nodir G'aniyev



UNESCO Bosh konferensiyasining so'nggi 40 yil ichida birinchi marta Fransiya(Parij)dan tashqarida – Samarqandda o'tkazilishi.

2025- yilning 30-oktabr kuni Samarqandda YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochildi. Bu - deyarli 40 yil ichida Parijdan tashqarida o'tayotgan ilk sessiyadir...¹⁰ Tashkilotning oliy organi sessiyasi YUNESKO tashkil etilganining 80 yilligiga to'g'ri keldi. Forumning tarixiy markazi YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan shahar — Samarqandda o'tkazilayotgani mintaqaning jahon sivilizatsiyasidagi

¹⁰ Odri Azule, UNESCO sobiq rahbar.



ahamiyatini ifoda etdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Unga qadar Markaziy Osiyo ko'pincha tarix yo'lidagi tranzit hudud sifatida ko'rilgan bo'lsa, endilikda u o'zining mustaqil sahifasini ochmoqda. Samarqand ko'chalarida bu voqea hech kimni ajablantirmadi: Registonga bir nazar tashlashning o'zi yetarli - bu shahar shunday yirik xalqaro anjumanga ancha avval loyiq bo'lgani ayon. YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatida Samarqand bilan bir qatorda Xiva, Buxoro va Shahrisabzning tarixiy markazlari ham mavjud.

43-sessiyada 190 mamlakatdan 2800 dan ortiq vakil ishtirok etda. Ular XXI asrning sun'iy intellekt va siyosiy beqarorlik bilan to'la dunyosida madaniy va ma'naviy merosni saqlab qolish zarurligi borasida yakdil fikrda. Ochilish marosimida

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Faxriy mehmon sifatida Serbiya prezidenti Aleksandr Vuchich va Slovakiya prezidenti Peter Pellegrini ham ishtirok etadi. Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov ma'lum qilishicha, sessiya doirasida 150 dan ortiq tadbir o'tkaziladi, shularning 20 dan ortig'i O'zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilgan.

YUNESKO so'nggi yillarda oson davrni boshdan kechirmadi. AQShning 2026yil oxiriga qadar tashkilotdan yana chiqish haqidagi qarori — jahon miqyosidagi beqarorlikning bir belgisi. Bunday sharoitda Bosh konferensiyada tashkilotning 2027yilgacha bo'lgan ish dasturi va budjeti qabul qilinadi, shuningdek, rahbar organlarga saylovlar o'tkaziladi. Tashkilotning yangi bosh direktori lavozimiga Misrning sobiq turizm va qadimiy yodgorliklar vaziri Xaled al-Ananiy tasdiqlanishi kutilmoqda. U oktabr boshidagi ijroiya kengashi saylovlarida 57 ovozdan 55 tasini olgan. YUNESKOning hozirgi rahbari Odri Azule sakkiz yillik faoliyati davomida tashkilot o'z pozitsiyasini mustahkamlashga erishgani hissi bilan lavozimini tark etdi.

"So'nggi yillarda, dunyo bo'linib ketganiga qaramay, bizga to'sqinlik qilgan siyosiy keskinlikni yumshatishga muvaffaq bo'ldik. Budjetlarni tikladik, dadil sa'yharakatlarni amalga oshirdik. Oxirgi sakkiz yil ichida tashkilot resurslari ikki barobarga oshdi", - dedi Odri Azule sessiya ochilish marosimida.

O'z lavozimini tark etar ekan, Azule YUNESKOning keyingi yillarda yanada shaffof, moslashuvchan va murakkab talablarga javob bera oladigan tashkilotga aylanganini ta'kidladi. "Biz birgalikda YUNESKOni XXI asrning yangi chaqiriqlariga jalb etdik — bular sun'iy intellekt, yangi texnologiyalar, ta'limning kelajagi yoki texnologiyalar etikasi bo'lishi mumkin. Biz YUNESKOni o'z missiyasiga yanada sadoqatli, shu bilan birga zamonaviy sinovlarni yengib o'tish qobiliyatiga ega tashkilotga aylantirdik", - dedi u.

Samarqandda muhokama etiladigan masalalar orasida ta'lim sohasidagi kamsitish va savodsizlik muammolari, milliy madaniyatlarni o'rganish va milliy kadrlarni tayyorlash, ijtimoiy fanlar, geologiya, okeanografiya va biosferaga oid dolzarb masalalar bor. O'zbekiston uchun bu voqea faqat belgilangan rejalar emas.

So'nggi yillarda mamlakat o'z madaniy merosini xalqaro darajada e'tirof ettirish yo'lida muhim natijalarga erishmoqda: nomoddiy madaniyatning 14 elementi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan, Buxoro "Ijodkor shaharlar tarmog'i"ga qo'shilgan, ilm-fan sohasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan va ta'limda raqamli loyihalar amalga oshirilmoqda. 2025-yilda Samarqand shahrida UNESCO Bosh konferensiyasining 43sessiyasining o'tkazilishi



O'zbekiston Respublikasining xalqaro madaniy diplomatiyadagi o'рни mustahkamlanayotganini yaqqol namoyish etdi. UNESCO tashkilotining bosh qarorgohi Parij shahrida joylashganligi bois, ushbu sessiyaning

O'zbekistonda o'tkazilishi O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi madaniy hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilganidan darak beradi. Mazkur konferensiya doirasida madaniy merosni saqlash, ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Ushbu konferensiya global maydonda O'zbekistonning xalqaro madaniy diplomatiya tizimidagi rolini mustahkamlashga, Fransiya bilan strategik madaniy hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, so'nggi yillardagi dasturiy islohotlar va faol tashqi siyosat natijasida O'zbekiston – Fransiya munosabatlari jadal rivojlanmoqda. Hamkorlik sohalari – siyosat, savdo-iqtisodiyot, madaniy-gumanitar va ta'limda aniq natijalarga erishilmoqda. Tomonlar o'zaro ishonch va manfaatlar mutanosibligiga asoslangan holda izchil muloqotni davom ettirmoqda.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashriflari va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya-ga bir necha bor qilgan rasmiy davlat tashriflari ikki tomonlama munosabatdagi yuksalishning mantiqiy davomi sifatida sheriklik yangi yo'nalishlarda rivojlanishi uchun poydevor yaratdi. Erishilgan strategik kelishuvlar va madaniy dasturlarni to'liq amalga oshirish O'zbekiston – Fransiya hamkorligini yanada yuqori bosqichga ko'tarishi, har ikki xalq manfaatiga xizmat qiladigan yangi yutuqlarni yuzaga chiqarishi shubhasiz.

REFERENCES:

1. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosati" – Saidov, A.X. (2019)
2. O'zbekiston va Fransiya: Taraqqiyotning yangi bosqichidagi hamkorlik.
3. www.president.uz
4. "O'zbekiston va Yevropa davlatlari o'rtasidagi hamkorlik"-Umarov, B.A. (2021)
5. "Madaniyatlararo muloqot va diplomatiya" – Rasulov, A.R. (2018)
6. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" – Mirziyoyev, Sh.M. (2021)
7. <https://www.unesco.org/en/general-conference/43>